

TARJIMA TANQIDINING HOZIRGI HOLATI

Safarboyeva Shahruza Dilmurod qizi

2-bosqich talabasi

Buxoro Davlat Universiteti

Email: shaxruzasafarboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kungi tarjimonlar, tanqid haqida tushuncha, tarjima nazariyasi va tanqidiga oid ilmiy tadqiqotlar, tanqidiy tahlil qilish;

Kalit so‘zlar: Adabiy portret, adabiy tanqidiy maqola, taqriz, bibliografiya, adabiy sharh, esse, baxs, suhbat, ochiq xat, pamflet, tarjima.

Hozirgi kunda tarjimonlar ko‘paygani quvonarli hol, biroq amalga oshirilayotgan tarjimalar sifati haqida o‘ylashimiz zarur. Faqat Toshkentda emas, balki viloyatlarda ham tarjima kitoblar nashrdan chiqmoqda. Biroq bu tarjimalarni kimlar o‘qib tahrir qilmoqda, kimlar tarjima talabga javob berishiga kafolat bo‘lmoqda? Bu tarjimalar faqat rus tilidangina emas, balki boshqa xorijiy tillardan o‘girilgan. Rus tilidan o‘zbek tiliga qoyilmaqom tarjima qila biladigan usta tarjimonlar bor. Ba’zan ular ham ingliz tilidan qilingan tarjimalarga, hatto dissertatsiyalarga taqriz berishadiki, endilikda bunday ishdan tiyilish lozim. Tarjima qilingan asar tilini bilmagan kishi u haqida nima deyishi mumkin?! Har holda bir tildan ag‘darilgan asarni shu tilni bilgan mutaxassis ko‘rib chiqsa foydalidir. Biror mutaxassis, tarjimon ko‘rib taqriz bermagan tarjima asarni nashr etishga shoshilmaslik kerak.

Tanqid, adabiy tanqid, tanqidchilik — adabiy faoliyat turi, badiiy asarni, shuningdek, bu asarda aks ettirilgan hayot hodisalarini tahlil va talqin etish. Tanqid ko‘pincha adabiyotshunoslikning bir qismi sifatida ta’riflanib keladi. Lekin tanqid adabiy faoliyatning mustaqil sohasi bo‘lib, adabiyotshunoslikdan farqli o‘laroq, asosan zamonaviy adabiy hayotda sodir bo‘layotgan jarayonlarni kuzatadi, bu jarayondagi yetakchi tamoyillarni aniqlaydi, gazeta va jurnal sahifalarida e’lon qilingan adabiy asarlarga munosabat bildirib, ularni odatda shu davrning g‘oyaviy va estetik talablari asosida tahlil etadi.[1] Tanqid adabiy meros namunalarining teatr, kino, musiqa va tasviriy san’atdagi yangi talqini masalalari bilan ham qiziqib, o‘z e’tiborini ko‘pincha shu asarlarning hozirgi zamon uchun ahamiyatlari tomonlariga qaratadi. Tanqidning asosiy vazifasi yozuvchi yoki adabiy asarni faqat tanqid qilish emas, balki adabiy asar yoki hodisaga haqqoni yaho berish, undagi yutuq va kamchiliklarni xolislik bilan yoritishdir.[1][2].

Tanqid badiiy ijod bilan qariyb bir vaqtida paydo bo‘lgan. Yozuvchilar yangi yozgan asarlarini turli davralarda, yig‘in va saroylarda o‘qib berishgan, davra qatnashchilari esa shu asarlarning yutuq va kamchiliklarini qayd etib, ayni paytda ham o‘quvchi (kitobxon), ham tanqidchi vazifasini bajarib kelishgan. Bu tanqid tarixining "og‘zaki davri"dir. Tanqidning yozma adabiyotdagи ilk namunalarining paydo bo‘lishi esa tazkirachilik mакtabining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ushshuarо" (1487) asari eng qad. tazkiralardan biri bo‘lib, unda 9—15-asrlarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Eronda yashagan mashhur shoirlar haqida ma’lumot bilan birga ular ijodidan namunalar ham berilgan. Tazkirachilikning mumtoz namunalaridan biri — Navoiyning "Majolis unnafois" (1491) asarida esa 15-asrda Xurosonda yashagan jami 450 dan ortiq shoir, yozuvchi va olimlarning bilim darjasи, dunyoqarashi, xulqatvori va boshqa to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Nisoriy, Vozeh, Fazliy, Tabibiy va boshqalarning tazkiralalarida muayyan yozuvchilar va ularning asarlari yuzasidan berilgan ma’lumotlar o‘zbek adabiyotida tanqidning paydo bo‘lishidagi muhim omillardan bo‘lgan.[3].

Tanqid uzoq vaqt mobaynida "amaliy" ahamiyat kasb etib, yozuvchini maqtash, ko‘kka ko‘tarish yoki, aksincha, qoralash, nuqsonlarini fosh etish, uning asarini esa umumiy baholash va kitobxonga tavsiya etish bilangina kifoyalanib keldi. Adabiyotning rivojlanishi, uning oldiga jamiyat tomonidan qo‘yilgan vazifalarning murakkablashishi bilan tanqid ham adabiy mehnat sohasi sifatida yangi qirralar, sifatlar kasb etdi.[1].

16—18-asrlarda Yevropa xalklari adabiyotida estetik tafakkurning shakllanishi bilan tanqid adabiy harakatning muhim qismi sifatida ajralib chiqdi. 19-asrda Farnsiyada Sh.O. Sentbyov boshchiligidagi "biografik tanqid"ning, Rossiyada V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, N.G.Chernishevskiy singari rus tanqidchilari mакtabining shakllanishi bilan tanqidning adabiy hayotdagи ahamiyati behad oshdi, maqsad va vazifalari esa tubdan o‘zgardi.

O‘zbek adabiyotida zamonaviy tanqidning paydo bo‘lishi 20-asrning 10yillariga to‘g‘ri keladi. Cho‘lponning "Adabiyot nadur?" ("Sadoi Turkiston", 1914) va "Muhtaram yozuvchilarimizg‘a" ("Sadoi Turkiston", 1915), M.Behbudiyning "Teatr nadur?" ("Oyna", 1914) singari maqolalarining e’lon qilinishi bilan o‘zbek tanqidining tom ma’nodagi tarixi boshlandi. Yozuvchi va tankidchilar shu davrda chop etilgan adabiytanqidiy maqolalarida badiiy adabiyotning yangi tarixiy madaniy davrdagi maqsadi, vazifasi va yo‘nalishini belgilab berishga harakat qildilar.[2][3].

20 yillarning o‘rtalaridan tanqid Sovet mafkurasi ta’sirida adabiy hodisalarga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondasha boshladi. Natijada o‘zbek adabiyotiga katta zarar keltirgan vulgarsotsiologik tanqid maydonga keldi. Bunday tanqid vakillari sovet voqeligini qabul qilmagan Cho‘lpon singari yozuvchilarga qarshi

kurash e'lon qildilar. Yozuvchi mahorati emas, mavzuning dolzarbligi, g'oyaviylik badiiy asar qimmatini belgilovchi asosiy mezonga aylandi. 1937—1938 yillardagi qatag'on to'lqini bir qadar tingen Ikkinchi jahon urushi yillarida Oybekning "Navoiy" romani, Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi, G'afur G'ulom singari shoirlarning yangi she'riy asarlarining chop etilishi munosabati bilan tanqid yana jonlanib, adabiy hayotga badiiy estetik talablar asosida yondasha boshladi. Shu tarzda tanqid o'z tarixining turli bosqichlarida adabiy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatish, adabiy jarayondagi ijobiy tamoyillarning avj olishiga ko'maklashish o'rniga yozuvchining erkin ijod etish huquqini cheklab keldi. Lekin shu bilan birga o'tgan asrning 10 yillarida ham, keyin ham Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhrr singari yozuvchilar, Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov kabi tanqidchilar tanqidning to'g'ri yo'lldan borishi va adabiyot oldidagi vazifasini qalol o'tashiga yordam beradigan ibratli ishlarni amalga oshirdilar. Tanqidning adabiy portret, adabiy tanqidiy maqola, taqriz, bibliografiya, adabiy sharh, esse, baxs, suhbat, ochiq xat, pamflet singari janr ko'rinishlari mavjud. Tanqidchi tanqid.ning bu barcha janrlaridan axloq va odob mezonlaridan chiqmagan holda foydalanishi lozim.[4].

Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar, "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" kitoblarida aytilgan fikr-mulohazalar, tavsiyalardan kelib chiqsak, bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o'rni, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekaniga iqror bo'lamiz. XX asrga qadar "tarjima" so'zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanib kelingan. Og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda "tilmoch", nemis tilida "dolmetechen", ingliz va frantsuz tillarida "interpret" atamalari qo'llanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'no kasb etgan. O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining rivojida Jumaniyoz Sharipov, Ninel Vladimirova, G'aybullha Salomov, Najmiddin Komilov, Qudrat Musaev kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi. Bugungi kunga kelib o'zbek tarjima maktabi jahon tarjimashunoslik ilmida tan olindi.

Tarjima sohasi gurkirib rivojlanayotgan bugungi kunda tarjima tanqidi har jihatdan faol, hozirjavob, adabiy jarayonning eng qizg'in jabhalaridan biriga aylanishi darkor. Tarjima tanqididagi sustkashlik oqibatida bugungi kunda xorijiy tillardan o'girilayotgan ko'plab tarjima asarlar o'zining bahosini olayotgani yo'q. Kitob holida chop etilayotganlarida hatto qaysi tildan tarjima qilingani ham ba'zan ko'rsatilmaydi. Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, aksariyat Tarjima asarlarga uning rus tiliga qilingan tarjimasi asos qilib olinadi. Nashriyot muharriri tomonidan asar tarjimasi asliyatga yoki ruscha variantiga ham qiyoslab tahrir qilinmaydi. Jahon adabiyotining

ayrim namunalari tarjimasini o‘qib mashhur adibning na uslubini, na mahoratini ko‘rasiz. Bunday tarjima asarlar o‘z vaqtida tahlil etilib, tegishli bahosini olishi lozim. Aks holda tarjimachilikni kosiblikka aylantirib olganlar safi kengayib ketaveradi.

Tarjima nazariyasi va tanqidiga oid ilmiy tadqiqotlar, qo‘llanmalar kerak, deb jon kuydirib gapi rayotgan imizning boisi ham shunda — tarjima tanqidchiligining hozirgi ahvoli talabga javob bermaydi. Gazeta va jurnallar, tahririyatlar taqdim etayotgan tarjima asarlar kimlarning qo‘lidan o‘tib kitobxonga yetib borayotir: ularni nashrga tayyorlagan muharrirlar o‘sha asar yozilgan xorijiy tilni biladimi yoki faqat tarjimonga bo‘lgan ishonchiga asoslanadimi? Ingliz (nemis, frantsuz) tilidan tarjima qilindi, deb bosilayotgan asarlar tarjimasini asliyatga qiyoslab nashrga tayyorlaydigan muharrirlar adabiy-badiiy nashrlarda, nashriyotlarda bormi? Malakali muharrir qalami tegmagan, qanday o‘girilgan bo‘lsa, shu zaylda chiqib ketayotgan tarjima asarlarining soni tobora ko‘payib borayotgani, albatta, tashvishlanarli hol.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati milliylik ekan, demak, badiiy tarjimada milliylikni saqlab qolish, boshqacha aytganda, uni qayta yaratish tarjima muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi, bosh omilidir. Qolaversa, tarjima tanqidi faoliyati ko‘ngildagidek emas. Bu muammolarni hal etish uchun amalga oshirilayotgan ishlardan umidimiz katta. Xususan, tarjimashunoslik sohasiga, bevosita badiiy tarjima amaliyotiga kirib kelayotgan yoshlar, ularning Yozuvchilar uyushmasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani quvonarli holdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Ad.:Bursov B.I. 1976 yil
- 2.Kritika kak literatura. L. 1976 yil
- 3.Nazarov B., O‘zbek adabiy tanqidchiligi: g‘oyaviylik, metod, qahramon, T., 1979 yil
- 4.O‘zbek adabiy tanqidi tarixi, 1—2 jildlar, T., 1987 yil.